Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 94

JADIDLAR MEROSI VA QATAG‘ON QURBONLARI XOTIRASI: MILLIY TEATRDA O‘ZLIKNI ANGLASHNING FALSAFIY-AKSIOLOGIK ASOSLARI

Shohrux Akbarliyev*
AnDU Mustaqil izlanuvchi
✉ akbaraliyevshohrux@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Turkiston jadidchilik harakati namoyandalarining teatr va dramaturgiya sohasidagi faoliyati qatag‘on qurbonlari xotirasi hamda milliy o‘zlikni anglash jarayoni bilan uzviy bog‘liqlikda tahlil qilinadi. Jadid teatrining shakllanishi faqat san’at taraqqiyoti hodisasi emas, balki xalqning ma’naviy uyg‘onishi, milliy ongining shakllanishi va mavjud ijtimoiy muammolarga tanqidiy munosabatini kuchaytirgan falsafiy-ma’rifiy jarayon sifatida talqin etiladi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush”, Abdulla Avloniyning “Advokatlik osonmi?”, Abdurauf Fitratning “Abulfayzxon”, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari”, Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” kabi asarlari misolida jadid dramaturgiyasida ma’rifat, jaholatga qarshi kurash, milliy o‘zlik, erkinlik, adolat va inson qadr-qimmati kabi qadriyatlarning badiiy ifodasi ochib beriladi. Shuningdek, jadid namoyandalarining keyinchalik qatag‘on qilinishi ularning teatr faoliyatida ilgari surilgan g‘oyalar bilan bog‘liq holda falsafiy-aksiologik jihatdan baholanadi.

Kalit so‘zlar

qatag‘on qurbonlari, tarixiy xotira, milliy o‘zlik, jadidchilik, teatr, dramaturgiya, aksiologiya, ma’rifat, milliy qadriyat, erkinlik, adolat, ma’naviy meros.

DOI: 10.5281/zenodo.23281826

KIRISH

Har qanday xalqning milliy o‘zligini anglash jarayoni uning tarixiy xotirasi, ma’naviy merosi va avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan qadriyatlari bilan bevosita bog‘liq. Tarixiy xotira faqat o‘tmishda sodir bo‘lgan voqealarni eslab qolish jarayoni emas, balki xalqning o‘zligini anglash, tarixiy tajribasini baholash va kelajak taraqqiyoti uchun ma’naviy xulosalar chiqarish imkonini beruvchi ijtimoiy-falsafiy hodisadir.

Ayniqsa, XX asrning birinchi choragida Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida katta o‘zgarishlarni boshlab bergan jadidchilik harakati bu borada alohida ahamiyatga ega. Jadidlar maktab, matbuot, adabiyot bilan bir qatorda teatrni ham xalqning ma’naviy ongini uyg‘otuvchi, jamiyatdagi illatlarni ko‘rsatuvchi va milliy o‘zlikni shakllantiruvchi vosita sifatida ko‘rdilar. Zamonaviy tadqiqotlarda ham jadid teatrining xalqni ma’rifatga chorlash, milliy o‘zlikni anglash va ijtimoiy adolat g‘oyalarini targ‘ib qilishdagi roli qayd etilgan.

XX asr o‘zbek teatri milliy madaniyat tarixida yuz bergan eng muhim estetik hodisalardan biridir. Milliy teatr san’atining shakllanishi va taraqqiyoti jadidchilik harakati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u ma’rifiy g‘oyalar asosida vujudga kelgan. Xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning Padarkush pyesasi bilan 1914-yilda o‘z faoliyatini boshlagan o‘zbek professional teatri qisqa tarixiy davr mobaynida sezilarli taraqqiyot bosqichini bosib o‘tdi. Ikki-uch o‘n yillik ichida milliy sahna san’ati har qanday xalq faxrlansa arzigulik darajaga ko‘tarildi. O‘zbek teatri o‘z mohiyatiga ko‘ra jadidchilik harakatining ma’rifiy-mafkuraviy mahsuli bo‘lib, jamiyatni uyg‘otish va milliy ongni shakllantirish vazifasini bajargan [1].

Birinchi o‘zbek professional ijodiy jamoasi hisoblangan “Turon” truppasi faoliyati milliy teatr tarixida alohida o‘rin egallaydi. Truppa nizomida teatr faoliyatining asosiy maqsadi sifatida quyidagilar belgilangan edi: aholi o‘rtasida sahna san’ati va xayriya ishlariga jiddiy munosabatni shakllantirish hamda xalq uchun ma’rifiy va sog‘lom spektakllar namoyish etish. Ushbu maqsadlar teatrning ma’rifiy va ijtimoiy vazifalarini aniq belgilab bergan.

Sahna faoliyatini tashkil etish va uni keng jamoatchilik orasida targ‘ib qilishda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy hamda Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi yirik ma’rifatparvarlarning xizmatlari beqiyosdir. Ularning sa’y-harakatlari natijasida teatr qisqa fursat ichida xalq madaniy hayotining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Sanoqli yillar davomida o‘ttizga yaqin dramatik asar yaratildi, aktyorlik va rejissyorlik san’atining professional tamoyillariga asos solindi [2].

Jadid teatri va dramaturgiyasining asosiy xususiyati uning ijtimoiy-ma’rifiy yo‘nalishida namoyon bo‘ladi. Sahna asarlarida oila hayotining tasviri orqali inson qalbiga kirib borish, ma’naviy tarbiya berish va shu yo‘l bilan jamiyat hayotida kuchayib borayotgan milliy uyg‘onish g‘oyalarini targ‘ib etish asosiy badiiy maqsad sifatida ilgari surilgan[3]. Bu esa teatrning shunchaki estetik tajriba emas, balki ma’naviy-mafkuraviy tarbiya vositasi ekanini ko‘rsatadi.

Jadid teatrining falsafiy-aksiologik mohiyatini anglashda Mahmudxo‘ja Behbudiy ijodi alohida o‘rin tutadi. Uning “Padarkush” dramasi o‘zbek zamonaviy dramaturgiyasining dastlabki muhim namunalaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Asarda jaholat, savodsizlik va tarbiyasizlikning inson hamda jamiyat hayotidagi salbiy oqibatlari ochib beriladi[4].

“Padarkush”ni faqat oilaviy fojia haqidagi asar sifatida talqin qilish uning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini toraytirib qo‘yadi. Asarning tub mazmunida ma’rifat va jaholat o‘rtasidagi ziddiyat yotadi.

Behbudiy uchun insonning fojiaga yuz tutishining asosiy sabablaridan biri — uning ma’naviy va intellektual jihatdan tarbiyalanmaganligidir. Demak, ma’rifat shaxsiy ehtiyoj emas, balki millatning mavjudligi va kelajagini belgilaydigan qadriyat sifatida talqin qilinadi.

“Padarkush”ning teatr sahnasiga olib chiqilishi esa bu g‘oyani yanada keng auditoriyaga yetkazish imkonini berdi. 1914-yil 27-fevralda Abdulla Avloniy rahbarligidagi “Turon” teatr truppasi Toshkentdagi Kolizeyda “Padarkush”ni sahnalashtirdi. Spektakl oldidan Munavvarqori teatrning jamiyat hayotidagi o‘rni haqida nutq so‘zlagan, bosh rolni esa Avloniy ijro etgan. “Turon” guruhi keyinchalik ushbu spektakl bilan Farg‘ona vodiysining turli hududlarida ham gastrollar qilgan[5].

Abdulla Avloniy jadid teatrining amaliy rivojiga katta hissa qo‘shgan namoyandalardan biridir. 1913-yil oxirlarida “Turon” jamiyati shakllanib, uning doirasida sahna faoliyati yo‘lga qo‘yildi. 1914-yilda Avloniy boshchiligida “Turon” teatr guruhi faoliyat boshladi.

Avloniyning teatr faoliyatidagi asosiy jihat — sahnani ijtimoiy-ma’rifiy tarbiya vositasiga aylantirganidir.

Uning “Advokatlik osonmi?”, “Pinak”, “Biz va Siz”, “Ikki sevgi”, “Portugaliya inqilobi” kabi asarlari bilan bir qatorda boshqa xalqlar dramaturgiyasidan tarjima qilingan sahna asarlarining ham o‘zbek tomoshabiniga taqdim etilishi teatrning ma’rifiy imkoniyatlarini kengaytirdi[6].

Avloniy faoliyatining aksiologik mohiyatini uchta asosiy qadriyat orqali ifodalash mumkin:

birinchidan — ilm va ma’rifat;

ikkinchidan — axloqiy mas’uliyat;

uchinchidan — millat taraqqiyoti.

Demak, Avloniy teatrida tomoshabin shunchaki kuzatuvchi emas, balki ijtimoiy va axloqiy xulosa chiqaruvchi subyekt sifatida qaraladi. Bu esa jadid teatrining zamonaviy teatr nazariyasidagi muhim xususiyatini ko‘rsatadi: sahna insonni faqat hayajonga solmaydi, balki uni o‘z hayoti va jamiyatiga tanqidiy nazar bilan qarashga undaydi.

Jadid dramaturgiyasi rivojida Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy va Abdulla Qodiriy ijodi alohida ahamiyatga ega.

Fitratning “Abulfayzxon” dramasi tarixiy hokimiyat, shaxs va jamiyat, siyosiy mas’uliyat, adolat kabi masalalarni badiiy-falsafiy jihatdan ko‘taradi. Jadid dramaturgiyasi namunalarining qatorida “Abulfayzxon”,

“Andalusning so‘nggi kunlari”, “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari”, “Baxtsiz kuyov” kabi asarlar ham tilga olinadi.

Bu asarlarda milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlardan ajratilmaydi. Aksincha, milliy o‘zlikni anglash insoniyatga xos bo‘lgan adolat, erkinlik, ma’rifat va inson qadr-qimmati kabi universal qadriyatlar bilan uyg‘un holda talqin qilinadi. Noël Carrollning ta’kidlashicha, teatr falsafasining asosiy vazifasi tushunchalarni aniqlashtirish, ularning mazmunini mantiqiy tahlil qilish hamda nazariy ziddiyatlarni bartaraf etishdan iboratdir[7]. Bu yondashuv teatrni tasviriy-estetik hodisa sifatida emas, balki mantiqiy-konseptual tahlil obyektiga aylantiradi.

Jadid teatrining tarixiy ahamiyatini yanada chuqurroq anglash uchun uning namoyandalarining keyingi taqdiriga murojaat qilish zarur. Jadidlarning ko‘pchiligi keyinchalik siyosiy ta’qib va qatag‘onlarga uchradi. Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Cho‘lpon, Qodiriy kabi ziyolilar xalqning ma’rifiy va milliy taraqqiyoti uchun xizmat qilgan faoliyatlari bilan birga tarixiy qatag‘onlar xotirasining ham markaziy siymolariga aylandilar.

Bir davrda millatni uyg‘otishga xizmat qilgan g‘oyalar keyingi siyosiy tuzum tomonidan xavf sifatida baholandi, biroq vaqt o‘tishi bilan aynan shu g‘oyalar milliy ma’naviy meros sifatida qayta tiklandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyuldagi PQ-270-son “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida”gi qarori[8]. Bu qarorga ko‘ra;

- qatag‘on qurbonlari va jadidlik harakati vakillari tug‘ilib-o‘sgan, yashagan xonadonlarni aniqlash;
- ularga esdalik lavhalari o‘rnatish;
- mahallalar va maktablarda “Qatag‘on qurbonlari xotirasi burchaklari”ni tashkil etish;
- jadidlar va qatag‘on qurbonlarining ilmiy-ijodiy merosini o‘rganish;
- nodir kitoblar, qo‘lyozmalar va tarixiy hujjatlarni raqamlashtirish;
- arxivdagi ayrim hujjatlarni belgilangan tartibda maxfiylikdan chiqarish

kabi qator vazifalar yuklatilgan edi. Bugungi kunda ushbu vazifalar ijrosini amalda ko‘rib turibmiz.

Jadidlar teatr orqali milliy ongni uyg‘otgan bo‘lsa, bugungi teatr tarixiy xotirani badiiy qayta talqin qilish orqali avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy aloqani davom ettirmoqda. Buning yaqqol misollaridan biri O‘zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatrida namoyish etilgan “Jadidlar. So‘nggi kunlar” tarixiy dramasidir[9]. Unda Behbudiy, Munavvarqori, Cho‘lpon, Qodiriy va Fitrat kabi jadidlarning qatag‘on davridagi taqdiri sahna vositasida aks ettirilgan. Spektaklning asosiy g‘oyaviy yo‘nalishlaridan biri jadidlarning kurashi va intilishlarini tarixiy xotira sifatida saqlash, ularning merosini o‘rganishga mas’uliyat bilan yondashishdir.

Xulosa

Qatag‘on qurbonlari xotirasini milliy o‘zlikni anglashning falsafiy-aksiologik asosi sifatida tadqiq etishda jadidlarning teatr faoliyati alohida ilmiy ahamiyatga ega. Chunki jadidlar teatrni xalqni ko‘ngil ochishga chorlaydigan oddiy tomosha vositasi sifatida emas, balki millatni uyg‘otuvchi, insonni tarbiyalovchi, jamiyatni tanqidiy anglashga undovchi va milliy o‘zlikni shakllantiruvchi ma’naviy institut sifatida tushunganlar.

Behbudiyning “Padarkush” dramasi orqali jaholat va ma’rifat o‘rtasidagi ziddiyat, Avloniyning teatr faoliyati orqali ma’rifat va axloqiy mas’uliyat, Fitrat dramaturgiyasida hokimiyat va adolat, Hamza ijodida ijtimoiy-ma’rifiy muammolar, Qodiriy dramaturgiyasida esa inson va jamiyat munosabatlari badiiy-falsafiy talqin qilindi. Jadidlar dramaturgiyasida ilgari surilgan ushbu g‘oyalar milliy qadriyatlar bilan birga umuminsoniy qadriyatlarni ham mujassamlashtirdi.

Shu ma’noda qatag‘on qurbonlari xotirasi o‘tmishdagi fojealarni yodga olish bilangina cheklanmaydi. U jadidlar tomonidan ilgari surilgan ma’rifat, erkinlik, adolat, inson qadr-qimmati, vatanparvarlik va milliy taraqqiyot kabi qadriyatlarni qayta anglash jarayonidir. Jadid teatrining eng muhim tarixiy-falsafiy vazifasi — tomoshabinni voqea guvohidan ma’naviy tafakkur subyektiga aylantirish bo‘lgan. Aynan shu jihat qatag‘on qurbonlari merosining bugungi ahamiyatini belgilaydi. Chunki ularning hayoti va ijodini xotirlash orqali jamiyat nafaqat o‘zining o‘tmishini, balki qanday qadriyatlar asosida kelajak qurishi kerakligini ham anglaydi.

Demak, qatag‘on qurbonlari xotirasi va jadid teatrining ma’naviy merosi o‘rtasidagi bog‘liqlikni “tarixiy xotira — milliy o‘zlik — qadriyat — ma’naviy vorisiylik” tizimida ko‘rish mumkin. Jadidlarning teatr

faoliyati ushbu tizimning shakllanishida muhim tarixiy-falsafiy omil bo‘lib, uning ta’siri zamonaviy o‘zbek teatrida ham davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tursunov S. XX asr o‘zbek teatri. – T.: Fan, 2007-1-b.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent.
4. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent.
5. Qodiriy A. Baxtsiz kuyov.
6. Karimov N. Mahmudxo‘ja Behbudiy. – Toshkent, 2009.
7. Jadidchilik davri adabiyoti va dramaturgiyasiga oid ilmiy tadqiqotlar.
8. O‘zbekiston madaniyati va san’ati tarixiga oid ilmiy nashrlar.
9. Ўроқова О.Ж. Чўлпон ижодининг бадиий- Эстетик мохияти. Т-2019
10. core.ac.uk, дата последнего обращения: апреля 10, 2025, https://core.ac.uk/download/pdf/235889144.pdf
11. Jadid. Maxmudxo‘ja Behbudiy (1875-1919)
12. O‘zbekiston akademiyasi Abdulla Avloniy
13. O‘zbekiston madaniyati va san’ati. Ilmiy-uslubiy, nazariy-amaliy jurnal. – Toshkent: O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, 2025. – №1 (1).
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyuldagi PQ-270-son qarori https://www.lex.uz/en/docs/-7027939
15. Musiqali teatr san’ati ta’limida aktyorlik va rejissura san’ati muammolari: Respublika ilmiy-amaliy anjuman to‘plami. – Toshkent, 2025.
16. О.Уракова. The search for National and Universal in art in the context of romanticism. International Scientific Journal Theoretical &Applied Science/ 22/07/2020;
17. O‘roqova O. Sharq romantizmining estetikasi: vorisiylik. — Andijon, 2024